



УДК:811.512.1

Xolida IMAMOVA,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti, PhD

E-mail: x.imamova@uwed.uz / imamova.h68@gmail.com / imam_muhammad@mail.ru

TashDShU professori Q. Sodiqov taqrizi asosida

TURKOLOGIYA FANINIG RIVOJLANISH TARIXI HAQIDA

Аннотация

Ushbu maqolada turkologiya sohasidagi ba'zi masalalar ko'tarilib tahlilga tortiladi. Bu masalalarga tilshunoslik, tilga oid ta'riflar, Turkiy tillar oilasining geneologik kelib chiqishi Oltoy tillar oilasiga, Ural-oltoy tillari va Turkiy tillar oilasi, Turkiy tillarning tasniflanishi, Turkiy tillar oilasiga mansub O'zbek va Turk tilining XV-XX asrlar oralig'idagi o'zaro munosabatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Turkologiya, o'zbekcha, turkcha, termin.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ТЮРКОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье поднимаются и анализируются некоторые вопросы в тюркологии. К этим вопросам относятся лингвистика, определения языков, генеалогическое происхождение тюркской языковой семьи от алтайской языковой семьи, урало-алтайских языков и тюркской языковой семьи, классификация тюркских языков, принадлежности узбекских и тюркских языков к Тюркская языковая семья в XV-XX веках, взаимоотношения и влияния.

Ключевые слова: Тюркология, узбекский язык, турецкий язык, термин.

SOME ISSUES OF TURKOLOGY

Annotation

This article raises and analyzes some issues in Turkology. These issues include linguistics, definitions of languages, genealogical origin of the Turkic language family from the Altaic language family, Ural-Altaic languages and the Turkic language family, classification of Turkic languages, affiliation of Uzbek and Turkic languages to the Turkic language family in the 15th-20th centuries, relationships and influences.

Key words: Turkology, Uzbek, Turkish, terminologies.

Kirish. Tilshunoslik yoki lingvistika - tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, uning tafakkur bilan bog'liqligi, jamiyatdagi o'rni va munosabati, tilning ichki qurilishi, tasniflanishi, tahlil qilish yo'llari kabi muhim masalalar bilan shug'ullanuvchi fanning turlaridan biri ekanligi manbalarda ta'kidlanadi [5].

Tilshunoslikning predmeti bo'lgan til haqida juda ko'p tariflar berilgan: - "Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir" (F.de Sossyur). - "Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir" (B.Grosse), degan fikrlar mavjud [5].

Bu kabi tariflar ham sharq olimlari tomonidan, hamda g'arb olimlari tomonidan berilgan. Ikki qutb olimlari tomonidan turli-tuman ta'riflar berilgan bo'lishiga qaramasdan tilshunoslar bugunga qadar aniq bir tarif ustida to'xtalmagan. Sababi, barcha keltirilgan tariflar to'g'ri va hammasi til xususiyatining ma'lum tomonlarinigina qamrab oladi. Ammo til ko'rinishidan juda sodda va shuning bilan birga juda murakkab hodisaki, bugunga qadar tilga ta'rif xususida bir to'xtamga kelinmadi.

Dunyo tilshunoslari til haqida qancha tariflar bermasin, til - bu har bir xalqning ruhiyatiga taaluqli ekanligi, uning ma'naviyati va madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Dunyo tilshunosligida Turkologiya yoki Turkiyshunoslik juda murakkab fan sanaladi. U avvalo zamonaviy sharqshunoslikning bir muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiyshunoslik fani - turkiy elatlarning yashash xududi yani geografiasini, tarixini, tilini, adabiyotini va madaniyatini o'rganadi. Turkiy elatlarning yashash xududi juda katta bo'lib nafaqat O'rta Osiyoda, balki Rossiya va uning Sibir o'lkasi, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Pokiston, Afg'oniston, Xitoy va h.k.larni qamrab oladi. Demak, turkiyshunoslik barcha turkiy elatlariga, ularning geografiasini, tarixi, tili, adabiyoti va madaniyatiga taaluqli sanaladi.

Sharq tillaridan sanaluvchi turkiy tillar haqida olimlarning qarashlari farqli. Olimlar E.D. Polivanov va G.Ramstedt turkiy

tillarni Oltoy tillar oilasiga kiritisa, O.Betling va G.Vinkler esa Ural-oltoy tillari deb nomlaydi. N.A Baskakov esa o'zining "Vvedeniye v izucheniye tyurkskix yazikov" [1] kitobida Turkiy tillar oilasi deb qayd etadi va unga kiruvchi jonli tillarni:

A. G'arbiy xun tarmog'i,

Bulg'or guruhi: chuvash tili;

O'g'uz guruhi bir necha kichik bo'limlardan tashkil

topgan:

o'g'uz-turkman guruhi: turkman va truxman tillari;

o'g'uz-bulg'or: gagauz va bolqon turklari tillari;

o'g'uz-saljuq: ozarbayjon, turk, qirim-tatartilining janubiy

qirg'oq shevasi va urum tili;

Qipchoq guruhi ham bir necha kichik bo'limlardan tashkil

topgan:

qipchoq-polovets bo'limi; qaray, qo'miq, qarag'ay-

balqar, qirim-tatar tillari;

qipchoq-bulg'or bo'limi: tatar va boshqird tillari;

qipchoq-no'g'ay bo'limi: no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq,

o'zbek tilining qipchoq shevasi;

Qorluq guruhi: o'zbek va yangi uyg'ur tillari.

B. Sharqiy xun tarmog'i

1. Uyg'ur-o'g'uz guruhi:

1) uyg'ur-tukuy bo'limi: tuva va tofa tillari;

2) yoqut bo'limi: yoqut tillari;

3) xakas bo'limi: xalas, shor, cho'lim tatar, qamashi,

oltoy tilining shimoliy shevasi, sariq-uyg'ur tillari;

2. Qirg'iz-qipchoq guruhi: qirg'iz va oltoy tillari, deya

ajratadi.

O'zbek tilshunos olimi M.T. Iriskulov ham N.A.Baskakovning shu tasnifga o'zining "Tilshunoslikka kirish" kitobida qo'shiladi [5].

Demak, turkiy tillarning geniologik tasnifi borasida ham tilshunoslar orasidagi fikrlar bir-biridan farq qiladi. Yani turkiy tillarni geniologik jihatdan uchga; Oltoy tillar oilasiga, Ural-oltoy tillari va Turkiy tillar oilasiga taaluqli deb qarash mavjud.

Turkiyshunoslik fani – turkiy tillarning rivojlanishini, qadimgi davrdan bugunga qadar bo'lgan holatining dinamik shaklini tadqiq etadi. Shu shaklda xalq va millatning tarixiy taraqqiyotini uning tarixiy arealiga qo'shib o'rganadi. Har doim arealning o'zgarishi, kengayib torayishi lingvistik faktorlar asosida aniqlanadi. Bu faqat turkiy tillar uchun emas, balki har bir til shu jumladan, o'zbek va turk tili uchun ham muhimdir.

Demak, agar turkiy xalqlar uzoq tarixiy davrni bosib o'tgan bo'lsa, qadimdan bugunga qadar, turkiyshunoslik fani – bu tillar taraqqiyotining tarixiy bosqichlaridagi etaplarini sanab o'tadi.

Mantiq jihatdan fan – turkiy tillarni va unda qayd etilgan adabiyotlarni: qadimgi turkiy tillar, o'rta turkiy tillar, yangi(hozirgi) turkiy tillarga ajratish mumkin. Ular: tosh bitiglar, qo'lyozmalar va toshbosmalar va h.k.larni tashkil etadi.

Bu bo'linish tillarning qat'iy bo'linishini ifodalamaydi. Tilshunoslikda qayd etilganidek, til sakrashlar orqali rivojlanmaydi, balki asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi. Shu sababli, qadimgi turkiy tillar, o'rta turkiy tillar, yangi(hozirgi) turkiy tillar orasida keskin bir chegara yo'q, ularning hammasi tahmini ajratish hisoblanadi. Ular koproq ajdodlar tomonidan qoldirilgan toshga, qoyaga, taxtaga, teriga, turli idishlarga, devorlarga, matoga va qog'ozga bitilgan turli uslubdagi matnlardan tashkil topgan manbalarga tayanadi.

Tarixiy manbalar ko'p bo'lsa, tadqiqot chegaralanadi: tarix, til, madaniyat, adabiyot; yozma adabiyot va og'zaki adabiyot uslublari kabi. Tilni chuqur o'rganadigan bo'lsak chegaralanish torayib boradi. Dunyoda tillarning tarixiy imkoniyati o'zgaradi. Yozma uslublar buni o'zida aks ettiradi.

Har bir davr adabiyoti va tili o'z shakliga ega. Zamonaviy o'zbek va turk tilining tarixi XV asrdan boshlanadi. XV asrgacha bo'lgan davr barcha turkiy tillar uchun umumdavrlar sanaladi desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Yevropa adabiyotida Usmonli turk tilining dastlabki tavsifi XV-XVI asrlarga mansubligi manbalarda qayd etiladi. Buning asosi sifatida Ieronim Megizerning 1533 yildagi dastlabki “Turk tili” qo'llanmasining qo'lyozma nusxasi tayyorlanganligi va 1612 yilda esa ilk “Turk tili grammatikasi”ning bosma shakli nashr etilganligi aytiladi [13].

O'rta Osiyoda Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiy etti. Qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar kengaydi. Davlatchilik rivojlangan sari, temuriylar davlati tilining tadqiq etilishiga ham e'tibor qaratildi. Buni ikki turdagi lug'atlarda ko'rish mumkin:

Chig'atoycha so'zlarning usmonli turkiycha izohi bo'lgan lug'atlar; “Abushqa” (XVI asr), “Lug'ati Navoiy” (XVI asr), Sulaymon Buxoriyning “Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy” (XIX asr) va boshqalar.

Turkiy so'zlarning forscha izohi bo'lgan lug'atlar; Tole Imoni Hiraviyning “Badoe ul-lug'at” (XV asr), Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” (XVII asr), Mirzo Mahdixonning “Sangloh” (XVIII asr) va boshqalar shular jumlasidandir [2].

Yuqoridagi qatorlarni yana uzaytirish mumkin. Bu lug'atlarning tuzilishidan ko'zlangan maqsad chig'atoy tilini o'granishga bo'lgan e'tibor edi.

Turkiyshunos olim E.Umarov: Turkiy xalqlar ichida o'zbeklarning madaniy merosi eng boy hisoblanishi, mavjud qo'lyozmalarning bir qismini qadimgi qomuslar tashkil etishini, Tibilisi, Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg), Boku, Toshkent shaharlari qo'lyozma xazinalaridagi Fatx Alixonning “Kitobi lug'ati atrokiya”, Tole Xisraviyning “Badoe-ul-lug'at”, Muhammad Xuyinning “Xulosai Abbosiy” va boshqa lug'atlar shular jumlasidandir [9:6; 10:36], – deya ta'kidlaydi. Bulardan tashqari, Istanbul, Vena, London, Tehron, Qohira va boshqa chet el kutubxonalarda ham ko'plab merosimiz saqlanmoqda.

XV asr ilmiy va madaniy aloqalar rivojlanib, chig'atoychani o'rganishga bo'lgan e'tiborni yana bir asarda “Oqquyunli muxlislar devoni” (XV asr)da ham ko'rishimiz mumkin. Bu devon Oqquyunlilar saltanati xududidagi Navoiy she'riyati ixlosmandlari tomonidan tuzilib, Oqquyunlilar saltanatida yoyilgan o'g'uz turkchasiga moslashtirilganligi aytiladi va quyidagi g'azaldan misol keltiriladi:

Mehir çox görsatdim, ammā mehrbānē dapmadim,

Jān basē qıldim fidā, ārām-i jānē dapmadim.

Çam bilā jānima yetdim, ğamgusārē görmädim,

Hajr ilā dilhasta oldum dilsitānē dapmadim [4].

O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari haqida o'zbek tilshunos olimi Sh.Shoabdurahmonov o'zining “Hozirgi o'zbek adabiy tili” nomli kitobida uch katta davrni ta'kidlaydi:

1. Qadimgi turkiy adabiy tili;

2. Eski o'zbek adabiy tili;

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili [8].

Turk tilshunos olimi S.Eker Turk tilining taraqqiyot bosqichlari haqida “Çağdaş Türk Dili” nomli kitobida ham uch katta davrni ta'kidlaydi:

Eski Anadolu turkchasi;

Usmonli turk tili;

Zamonaviy turk tili [3].

Turkiyshunos olim Q.Sodiqov esa O'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlarini V-XXI asrlar oralig'ida sakkizga ajratadi: Oltoy va Hun davri, Qadimgi turkiy til, Eski turkiy til yoki Hoqoniya turkchasi, İlk chig'atoy davri, Chig'atoy turkiysi, O'zbek klassik yozma adabiy tili, Eski o'zbek adabiy tili, Hozirgi o'zbek adabiy tili, kabilar [6: 14-16].

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, barcha turkiy tillarning diaxron klassifikatsiyasi mavjud. Ularning har birida tasnifni yana ichki bo'linishlarga ajratish va tafsirlash mumkin. Bu tasniflar doirasida O'zbek va Turk tilining bo'linishi umumiy tasnifning ichidan joy oladi. Shunga qaramay har bir turkiy til o'z tasnifiga ega bo'lib qolaveradi.

Yana har bir davr tilshunosligining o'ziga xos maxsus leksikasi mavjud. Maxsus leksikaga asosan terminlar (atamalar) kiradi. Terminlar – bu tor doirada ishlatiladigan va faqat mutaxassislar tomonidan tushuniladigan so'z yoki so'z birikmasidan tashkil topadi.

O'zbek tilshunosligida turkologiya fani uchun asosan uch xil atama yuritiladi. Bular: 1) “Turkiyshunoslik” atamasi; 2) “Turkologiya” atamasi; [11] 3) “Turkiyot” atamasidir.

Turk tilshunosligida ham turkologiya fani uchun asosan uch xil atama yuritiladi: 1) “Turklük bilimi” atamasi 2) “Turkoloji” atamasi; 3) “Turkiyat” atamalaridir [7].

Demak, o'zbek va turk tilidagi atamalar aynan son va mazmun jihatidan bir-biri bilan to'la uyg'unlik hosil qilmoqda: turkiyshunoslik=turklük bilimi, turkologiya=turkoloji, turkiyot=turkiyat. Bu fan bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun ham uch xil atama qo'llaniladi: turkiyshunos, turkshunos va turkolog. Bundan tashqari, mutaxassis bo'lmasda turkiy tilda so'zlovchi yoki ijod qiluvchi kishi uchun turkona va turkigo'y shoir (yozuvchi) atamaları qo'llanilgan va qo'llanishda davom etmoqda.

Ko'rinishidan va tuzilishidan bu atamalar bir-biriga juda o'xshaydi. Turkiyshunoslik atamasi ot+fe'l strukturasidagi o'zbekcha+forscha so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan gibrid qo'shma so'z sanalsa=turklük bilimi esa sof turkcha ot+ot strukturasidagi so'z birikmasidan tashkil topgan, turkologiya atamasi esa, ot+ot strukturasidagi o'zbekcha+yunoncha so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan gibrid qo'shma so'z sanalasa=turkoloji ot+ot strukturasidagi turkcha+yunoncha so'zlarning qo'shilishidan tashkil topgan gibrid qo'shma so'z hisoblanadi. Turkiyot=turkiyat atamasi esa, ot+so'z yasovchi qo'shimcha+ so'z yasovchi qo'shimcha strukturasidagi yasama so'z sanaladi.

Ular o'zbek tilida ham, turk tilida ham bitta gumanitar kompleks fanning uch turli nomlanishi bo'lgan to'la sinonim so'zlardir. Agar ma'lum tushunchani ifodalovchi so'zlar yoki atamalar sinonimik qatorni tashkil etsa, ular ichida bittasi albatta dominantlik qiladi. O'zbek tilida ham, turk tilida ham bitta gumanitar kompleks fanning nomida turkiyshunoslik=turklük bilimi termini o'rniga turkologiya=turkoloji dominantlik vazifasini o'taydi. Demak, yunoncha atama ilmiy terminda dominantlik qilishini sababi, balki dunyo tilshunosligida universal qo'llanilishda bo'lishi mumkin.

Yana shu uch atama doirasida turkolog, turkiyshunos, turkshunos, turkiyot, turkona, turkiygo'y kabi terminlar ham o'zbek tilshunosligida qo'llanilib kelinmoqda. Vaholanki, O'zbek tilining izohli lug'atida turkshunos, turkiyot atamaları qayd

etilmaydi. Lug'atning so'z maqolalarida faqat turkolog, turkiyshunos, turkona, turkiygo'y atamallari uchraydi [11].

Demak, O'zbek tilshunosligining so'z boyligi va atamashunosligiga XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida ikki yangi termin: turkshunos, turkiyot kirib keldi deyish mumkin.

O'zbek tilida bugun qo'llanilayotgan turkiyshunos va turkshunos atamalarininig qo'llanilishiga e'tibor qarataylik. Bu atamalar sinonimdek tuyuladi. Aslida, turkiyshunos atamasi haqida izohli lug'atda – turkiyshunoslik bo'yicha mutaxassis, olim – deya qayd etiladi [11]. Butun turkiy tillar va ularning tarihi, adabiyoti, tili, madaniyati va boshqa ularga oid bilimlarni qamrab olgan olim. Turkshunos atamasi esa XX asrning 80-yillaridan paydo bo'ldi. Bu - turkshunos atamasi turk tili mutaxassisligiga ega tilshunoslar uchun qo'llanilmoqda, nazarimizda. Termin nuqtayi nazardan turkiyshunos kengroq atama bo'lib- umumturkiy tillarga taaluqli sanaladi. Turkshunos esa torroq bo'lib, faqar turk tili va adabiyoti mutaxassisliklari uchun ishlatiladi. Turkiyshunoslik turkshunoslikni o'z ichiga oladi va qamraydi, ammo turkshunoslik turkiyshunoslikni o'z ichiga sig'dirolmaydi. Balki vaqti kelib bu ikki atama lug'at tarkibidagi ma'no torayishi va kengayishi hodisasiga ko'ra sinonimlikni hosil qilishi mumkindir. Uning uchun ma'lum vaqt, mutaxassislar tushunchasida o'zgarish bo'lishi kerak. Shunday bo'lgani taqdirda bu o'zbek tilimiz uchun bir yo'qotish sanaladi.

O'zbek va turk tilida ishlatilayotgan ikkinchi atamamiz turkiyot=turkiyat'dir. O'zbek tilining izohli lug'atida turkiyot atamasi uchramasligini yuqorida qayd etgan edik. Turk tilining izohli lug'atida va internet taqmoqlarida turkiyat atamasi usmonli turk tilidan olinganligi va turkoloji= turkluk bilimi bilan aynan sinonim sifatida ishlatiladigan kompleks fanning nomi sifatida qayd etiladi [7]. Yuqorida turkiyat atamasini ot+so'z yasovchi

qo'shimcha+so'z yasovchi qo'shimcha strukturasidagi yasama so'z türk + i + y + at shaklida ajratdik. -at yasovchi qo'shimchasining tovush uyg'unligi hodisasiga moslashmasligi diqqatni tortadi. Emin+i+y+et=emniyet so'zining yasallishida turk tilidagi tovush uyg'unligi va tovush tushushi hodisalariga to'liq moslashadi. Diqqatni tortadigan jihati o'zak turkcha bo'lgan türk + i + y + at shaklida singormonizm hodisasi buziladi, o'zak arabcha bo'lgan emin+i+y+et shaklida singormonizm hodisasiga amal qilinadi.

Ma'lumki, termin aniq, konkret tushunchani ifodalab, emotsional-ekspressiv, modal funksiyalardan holi bo'ladi [12]. Umuman har qanday fanda termin borasida sinonimlik bo'lmasligi talab etiladi. Sababi, sinonimlik bo'lgan joyda hoh terminlarda va hoh so'zlarda bo'lsin, farqliylikni ifodalaydi. Ma'nodagi shu farqliylik tushunchada chalkashlikni yuzaga chiqarishi mumkin. Ammo bugun o'zbek va turk tilshunosligida, turkologiya fanida ko'rib turganimizdek sinonimlikning ishlatilishi kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, dunyoda turkiyshunoslik fani o'zining ichki imkoniyatlari, xususiyatlari va qoldirilgan yozma asarlar asosida rivojlanib borar ekan, turkiyshunoslik ichida turkshunoslik ham alohida ildamlamoqda. Turkiy tillar tasnifi, qoldirilgan yozma manbalarning o'rganilishi, o'zbek va turk tilshunosligidagi fanga oid terminlar turkiyshunoslik=turkluk bilimi, turkologiya=turkoloji, turkiyot=turkiyat va mutaxassislikka doir turkolog, turkiyshunos, turkshunos, turkiyot, turkona, turkiygo'y atamallari borasidagi turli-tumanliklarning bartaraf etilishida vaqt asosiy vazifani bajaradi. Davlatchilik yoki davlatchiliklar rivojlansa, o'sha davlatlar tilining tadqiq etilishi ham kengayadi. Asta-sekinlik bilan fandagi muammolar ham hal etiladi albatta.

ADABIYOTLAR

1. Баскаков, Н. А. (1968). Введение в изучение тюркских языков. Москва: "Высшая школа". С. 350-354
2. Bozkurt, B (1999). Türklerin Dili. Ankara: T.C. Kültür Bakanlığı Yayınları. S. 226-238.s.
3. Eker, S (2006). Çağdaş Türk Dili. Ankara: Grafiker Ofset. 156.s.
4. Эркинов, А. (2015). "Оккююли мухлислар девони", Tokyo: Research Institute for Languages and Cultures of Asia and Africa (ILCAA) Tokyo University of Foreign Studies, 3-11-1 Asahicho Fuchu-shi. 22-6.
5. Ирискулов, М.Т. (1992). Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи. 4-5 б.; 177-178 б.
6. Содиков, Қ. (2020). Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент: Akademnashr. 14-16 б.
7. Türkçe Sözlük 2. (1988). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi. 1504.s.
8. Шоабдурахмонов, Ш. (1980). ва б.к., Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Ўқитувчи. 7-б.
9. Умаров, Э. (1990). "Қомуслар – мадания бойлигимиз", "Гулистон" журналы, 6-сон.
10. Умаров, Э. (1992). "Эски ўзбек луғатлари" Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси Тилшунослик институти. 36-б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати-Т., (2005), Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 196-б.
12. Ўзбек тили лексикологияси. (1981) Тошкент: Фан. 28-б.
13. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, Т ҳарфи. (2005). Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти. 733-б.